



Tadqiqot.uz




ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES | RESPUBLIKA KO'R TARMOQLI ILMIY KONFERENSIYA

# YANG O'ZBEKISTON: 2023

CONFERENCE.UZ

O'ZBEKISTON: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM

DAVRIYLIGI:  
2018-2023



Мартирий Кунев (1973)



TOSHKENT SHAHAR, AMIR  
TEMUR KO'CHASI, PR.1, 2-UY.



+998 97 420 88 81  
+998 94 404 00 00



WWW.TAQIQT.uz  
WWW.CONFERENCES.UZ



NOYABR  
№58

OZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJUY OLY TALIM MUASSASALARI PROFESSOR-QITUVCHILARI, YOSH OLIMLAR, DOKTORANTLAR, MAGISTRANTLAR, VA IOTTIDORLU TALABALAR

**ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН:  
ИННОВАЦИЯ, ФАН  
ВА ТАЪЛИМ  
10-ҚИСМ**

---

**НОВЫЙ УЗБЕКИСТАН:  
ИННОВАЦИИ, НАУКА  
И ОБРАЗОВАНИЕ  
ЧАСТЬ-10**

---

**NEW UZBEKISTAN:  
INNOVATION, SCIENCE  
AND EDUCATION  
PART-10**

**ТОШКЕНТ-2023**



“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” [Тошкент; 2023]

“Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим” мавзусидаги республика 58-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 26 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар «Ҳаракатлар стратегиясидан – Тараққиёт стратегияси сари» тамойилига асосан ишлаб чиқилган еттига устувор йўналишдан иборат 2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси мувофиқ:– илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул муҳаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Давлат бошқаруви – Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети «Беш мұхым ташаббус» маркази раҳбари)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажида Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар – Турсунназарова Эльвира Тахировна (Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети, таржимонлик факультети, инглиз тили амалий таржимаси кафедраси в.б.доценти, PhD)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содикович, DSc, Тошкент фармацевтика институти, Фармацевтик ишлаб чиқаришни ташкил қилиш ва сифат менежменти кафедраси профессори

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [tadqiqot.uz](http://tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

**ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ  
ИННОВАЦИЯЛАР**

**1. Djo`rayeva Dilnoza**

МАКТАБГАША ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА АХЛОҚИЙ ТАРБИЯ ВОСИТАЛАРИ.....7

**2. Sobirova Salimaxon**

DISLEKTSIYA, UNING TASNIFI .....9

**3. Xaydaraliyeva Muxtasar**

TARBIYACHINING BADIY O’QISH VA HIKOYA QILIB BERISHGA TAYYORGARLIK  
KO’RISHI .....11

**4. Abdullayeva Feruza**

МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AXLOҚИЙ TARBIYALASHNING  
AHAMIYATI .....13

**5. Muxammadjanova Nodira**

FUNKTSIONAL DISLALIYA VA UNING SABABLARI .....15

**6. Turapova Gulnoza**

МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА MAZMUNLI RASM SOLISHGA  
O’RGATISHNING VAZIFALARI .....17

**7. Adizov Azim Tolibovich**

O’QUVCHILARDA O’QUV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA’ЛИМ  
TEXNOLOGIYALARI .....19

**8. Jaxangirova Xamida Abdiraxmanovna**

BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARINING BILISH FAOLIYATLARINI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI .....21

**9. Jumaev A**

JISMONIY TARBIYA DARSLARI ORQALI O’UVCHLARNI HARAKAT QOBILYATLARI-  
NI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....23

**10. Qosimbetova Ziywar Esbosinovna**

BALALARDI WATANSЎYIWShILIKKE TÁRBİYALAWDA XALÍQ AWIZEKI  
DÓRETPELERINIŃ XIZMETI .....25



## ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ СОҲАЛАРИДАГИ ИННОВАЦИЯЛАР

### МАКТАБГАША ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА АХЛОQИY TARBIYA VOSITALARI

Djo`rayeva Dilnoza  
Chust tuman 2-DMTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga axloqiy tarbiya berish yo’llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, axloqiy tarbiya, bolalar, vosita, mashg’ulot.

Maktabgasha ta’lim tashkilotida axloqiy tarbiya berish har xil vositalar yordamida amalga oshiriladi. Avvalo bolalarni har xil faoliyatlar vositasida kattalar mehnati bilan tanishtirish, mashg’ulotlarda va mashg’ulotdan tashqari vaqtarda ta’lim berish; kun davomidagi maishiy faoliyatda; mustaqil badiiy faoliyatda, ko’ngil ochishlarda qatnashtirish orqali bu ish hal etiladi.

Har xil bayramlar, san’at vositalari, ijtimoiy hayot voqyealari, bolalar badiiy adabiyoti, musiqa, ashula, tasviriy va amaliy san’at; o’yinchoq va o’yin materiallari, ommaviy axborot vositalari, oynan jahon va radio, kino va diafilmlar, diapositivlar va boshqalar bolalarning axloqiy tarbiyasiga katta ta’sir ko’rsatadi. Bu hamma vositalardan keng ravishda, ma’lum izchillik va sistemalilik bilan foydalanilgandangina bolalarning axloqiy tarbiyasiga samarali ta’sir etish mumkin. Masalan, kichik yoshli bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni faqat o’yin - mashg’ulotlarda yaxshi o’zlashtirib oladilar. Bolalar tomonidan o’zlashtiribolangan axloqiy tasavvur va tushunchalarni ular ongli ravishda tushunib yetishlari daslab mashg’ulotlarda, keyinchalik o’yin, mehnat, yaxshi yo’lga qo’ylgan kun tartibidagi ayrim tadbirlarda, sayr va ekskursiyalarda, shuningdek bolalarning mustaqil faoliyatları orqali amalga oshiriladi.

Bolalar axloqiy tasavvur va bilimlarni, madaniy xulq malakalarini o’zlashtirib olishlari lozim. shu bilan bir qatorda ularda axloqiy his -tuyg’ular va shaxsning axloqiy sifatlarini ham tarbiyalab borish lozim. Maktabgasha ta’lim tashkiloti ta’lim -tarbiya dasturida belgilab berilgan axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni ma’lum sistema va izchillik bilan muvaffaqiyatli amalga oshirilishi zarur. Buning uchun istiqbol rejasi tuziladi.

Unda axloqiy tarbiyaning har bir mavzusi bo’yicha ta’lim -tarbiya ishlarining butun sistemasi va izchilligi, pedagogik jarayonni tashkil etishning har xil shakllari aks ettiriladi.

Axloqiy tarbiya metodlari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga axloqiy tarbiya berishda har xil metod va usullarni qo’llash muhim ahamiyatga egadir.

Axloqiy tarbiya metodlari -bolalarning axloqiy tasavvur va bilimlarni egallab olishiga, ularda madaniy xulq va ijobiy munosabatlarni, shaxsning axloqiy his- tuyg’ulari va sifatlarini tarbiyalashga qaratilgan faoliyat usulidir. Axloqiy tarbiya metodlari quyidagi guruhlarga bo’linadi.

1      guruh -axloqiy ongni, ya’ni axloqiy tasavvur va bilimlarni, ularni bajarish xohishini shakllantirishga qaratilgan metodlar.

2      guruh -madaniy xulq -avtor va ijobiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan metodlar.

3      guruh -axloqiy his -tuyg’ular va munosabatlarni rag’batlantirishga qaratilgan yordamchi metodlar.

Hamma guruh metodlari axloqiy his -tuyg’ular va shaxsiy sifatlarni tarbiyalashni ta’minkaydi. Ko’rsatmali og’zaki metodlar, tushuntirishni ko’rsatish bilan qo’ib olib borish, tarbiyachining hikoyasi, o’qib berish, axloqiy mavzularda suhbatlar o’tkazish (rasmga qarab, tajribaga asoslanib, o’qilgani bo’yicha)

kuzatish, rasmlarni namoyish qilish, bolalar adabiyoti va hayotdagi ijobiy misollardan foydalanish asosida olib boriladi. Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar, ijtimoiy hayot voqyealari o’rgatiladi, ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Yuqorida keltirilgan hamma metodlar orqali bolalarga axloqiy norma va qoidalar,



ijtimoiy hayot voqyelar o'rgatiladi, ularda axloqiy tasavvur va tushunchalar shakllantiriladi. Bu guruh metodlariga qo'yiladigan asosiy talablar: bolalarning yaxshilik va yomonlik to'g'riisdagi tasavvurlarini e'tiborga olish, axloqiy xulq -atvor normalarini muhokama qilish uchun maxsus yaratilgan vaziyatda bolalarning o'zlarini faol qatnashtirish; har bir bolaning his -tuyg'usiga ehtiyojlik bilan munosabatda bo'lisch.

Bolani noo'rin tanqid qilish, uning ustidan kulish, unga nisbatan e'tiborsizlik qilish qat'ian man etiladi. Hamma metodlardan ma'lum izchillik bilan, kompleks ravishda foydalaniladi. Har bir metod o'ziga xos bo'lib, ma'lum vazifani bajaradi. Buni bir qator misollar orqali ko'rib chiqamiz. Tushuntirish bu ko'pincha bolalarga yangi axloqiy shuncha, norma, qoida bayon qilib berilayotganda ishlatiladi. Tushuntirish kattalarning jonli so'zi va namunasiga asoslanadi. Masalan: Ro'paradan kelayotgan tanish kishiga xushmalalik bilan salom berish uchun biroz to'xtab, u kishining yuziga qarab, kulimsirab "Assalomu alaykum" deyish, keyin yo'lida davom etish kerak. Tushuntirish va ko'rsatish tabiiy bo'lmosh'i lozim. Axloqiy mavzulardagi suhbatni maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning hamma guruhrarida qo'llash mumkin. Hikoyaning mazmuni yorqin tushunarli bo'lib, bolalarning his-hayajoniga yetarlicha ta'sir etishi kerak.

Bu metodning asosiy vazifasiga quyidagilar kiradi:

- Bolalarda ijobiy axloqiy hislami qo'zg'ata olish, asar -qahramonlariga hamdardlik bildirish
- yutug'idan quvonib, muvaffaqiyatsizligiga birgalashib achinish;
- Bolalarga tushunarsiz bo'lgan ayrim ahloq qoidalarining mazmunini ochib berish;
- Axloqiy mavzulardagi hikoyalardan mashg'ulotlarda sayrlarda, bolalarning hayoti bilan bog'liq bo'lgan joylarda ham foydalanish.

Axloqiy mavzulardagi suhbatlar orqali bolalar ahloq normalari va qoidalarini, ijobiy xulq shakllarini egallabgina qolmay, shu bilan bir qatorda ularda ahloq qoidalari va normalariga nisbatan talab yuzaga keladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.**

1. Munavvarov A.Q. "Oila pedagogikasi" . Toshkent.: "O'qituvchi" 2001 y.
2. Inomova M.O. "Farzand nihol ota –ona bog'bon" Toshkent.: "O'qituvchi", 1993 yil



DISLEKTSIYA, UNING TASNIFI

Sobirova Salimaxon  
Uychi tuman 1-KTIMTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni og’zaki va yozma nutqini rivojlantirish ysullari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, nutq, bolalar, intonatsiya va tovushlar, grammatic.

Nutq – fikr bayon qilish vositasi bo’lib, og’zaki va yozma shaklda ifodalanadi. Tafakkur nutq yordamida ro’y berib, shu tufayli kishilar birbirlari bilan aloqa bog’laydilar. Og’zaki nutq pauza, urg’u, intonatsiya va tovushlar orqali tinglovchiga borib etsa, yozma nutq, harf va so’zlarning ma’lum qonuniyat asosida o’zaro birikuvi, tinish belgilari, xar xil ajatishlar, gaplarni grammatic jihatdan aniq va tovushlar bayon qilish orqali etib boradi. Og’zaki nutqning yozma nutqdan yana bir farqi shuki, og’zaki nutqni eshitamiz, yozma nutqni ko’ramiz va o’qiyimiz. Yozma nutq murakkab jarayon bo’lib, u ko’p vaqt mehnat talab qiladi. Sintaksis jihatdan qaraganda yozma nutq eng to’liq va mukammal nutqdir. Bu nutq ixtiyoriy fikrimizni ifodalab berishning eng yaxshi vositasidir. Yozma nutq og’zaki nutq asosida rivojlanadi. Og’zaki nutq hayotda kishilar bilan munosabatda bo’lish, ularga taqlid qilish yo’li bilan rivojlanib, boladan maxsus o’qish va o’rganishni talab etmaydi. Yozma nutq esa harflar va belgilarni yordami bilan tovushlar, so’zlar, gaplarni ko’z bilan idrok qilishga, qo’l bilan yozishga mo’ljallangan nutqdir. Hozirgi zamон adabiyotlarida o’qish buzilishlari “alektsiya” va “dislektsiya” terminlari bilan yuritiladi. Alektsiya termini o’qish jarayonining yo’qligini, dislektsiya termini esa o’qish jarayonini qisman buzilishini bildiradi. Dislektsiya – bu markaziy psixik funksiyaning shakllanmaganligi va qat’iy xarakterdagi xatolarning qaytarilishi bilan bog’liq bo’lgan o’qish jarayonning qisman buzilishi. Dislektsiyaning alohida o’zi mustaqil nutq nuqsoni sifatida kamdarkam uchraydi. Dislektsiya belgilari quyidagichadir: Harflarni esda saqlay olmaslik, ularni bir-biri bilan almashtirib o’qish; harflarni bo’g’inlarga biriktira olmaslik; Harf va bo’g’inlarni qayta – qayta takrorlash, tushirib ketish, o’rnini almashtirish natijasida ma’noni tushunmay, noto’g’ri sekin o’qish; So’z qismlarini, bo’g’inlarni, qo’shimchalarni boshqa harf, bo’g’in yoki so’zlar bilan almashtirish; Tinish belgilari, pauzalarga rioya qilmaslik; so’z o’rtasida to’xtab, pauzalar qilib, birinchi so’zning ikkinchi qismini keyingi so’zning birinchi qismi bilan qo’shib o’qib ketish.

O’qish bu nutq faoliyatining tovushlar talaffuzi va idroki bilan chambarchas bog’liq bo’lgan bir turidir. Psihologiyaga doir adabiyotlarda o’qish mexanizmlariga, birinchidan so’zning o’qilishi, ya’ni grafik tomoni va aytilishi o’rtasidagi bog’lanish, ikkinchidan, o’qilgan so’zning ma’nosini tushunish, ya’ni ongli o’qish kiradi, deb ta’kidlanadi. O’qish malakalari mukammal bo’lishi uchun o’qish jarayonining ikkala tomonini ham bir-biriga payvasta qilib, baravar shakllantirib, olib borilish kerak. Aks holda materialni tushunib, ongli o’qishni ta’minlab bulmaydi. Yuqorida ko’rsatilgan dislektsiyaning belgilari ko’proq o’qish texnikasi bilan bog’liq bo’lsada, bularning hammasi ongli o’qishga ta’sir ko’rsatadi. Dislektsiya jarayonida bolalarda ko’pincha og’zaki nutqning buzilishi ham kuzatiladi. Adabiyotlarda dislektsiyadagi og’zaki nutq buzilishning turli xil turlari ko’rsatilgan bo’lib, bular:

1. Nutqning tempi va ritmining buzilishi (duduqlanish, juda tez nutq).
2. Nutq paydo bo’lishining kechikishi.
3. Verbal funksiyaning yaxshi rivojlanmaganligi (so’zlarni notug’ri ishlatilishi).
4. Og’zaki nutqning grammatic tuzilishining buzilishi.
5. Tovush talaffuzining buzilishi.
6. Fonematik rivojlanishning buzilishi.

Dislektsiyaning kelib chiqishida nutq rivojlanishining kechikishi ko’p ahamiyatga ega. Ko’p hollarda dislektsiyada nutqning rivojlanishining kechikishi kuzatiladi. Ba’zi hollarda bu qoloqlik Engil bo’ladi (nutq 2 yoshdan keyin paydo bo’lganda) boshqa hollarda nutqning rivojlanishining kechikishi qo’pol tarzda ya’ni nutq 4 yosh va undan keyingi yoshlarda paydo bo’lganda. Dislektsiyali bolalarda tovush talaffuzining buzilganligi lug’atining kambag’alligi, so’zlarni noto’g’ri ishlatganida kuzatiladi. Ular jumlalarni grammatic jihatdan to’g’ri tuza olmaydilar. So’zlarni ishlatishda xatolarga yo’l qo’yadilar. R.E. Levinaning fikricha, og’zaki nutq va o’qish buzilishlari asosida fonematik sistemaning bir shaklga tushmaganligi yotadi. O’qishga o’rgatishning dastlabki, bosqichlarida bolalarda nutqning fonetikfonematik tomoni



rivojlanmaganligi, nutqiy umumlashtirishlarning noto'g'riliqi kuzatiladi. Bu so'zning tovush analizini qiyinlashtirishadi. Harflarni o'zlashtirmaslik, grafik belgilarini o'zlashtiridagi zaiflikdan emas, balki tovushlarni umumlashtirishni bir maromga tushmaganligidan kelib chiqadi. Agar harf-tovush bilan umumlashtirilmasa uni o'zlashtirish mexanik xarakterda bo'ladi. Bola to'g'ri talaffuz etgan tovushlarni harf bilan aniq umumlatira oladi. Agarda tovushni yomon eshitsa noto'g'ri talaffuz etsa yoki boshqa tovushga almashtirsa unda shu tovushga mos tovushni idrok etish qiyin kechadi. Harfni o'zlashtirmaslik fonematik idrokni yaxshi rivojlanmaslikdan kelib chiqadi. SHunday qilib, agar bolada fonematik idrok yaxshi rivojlangan bo'lsa, unda harf hakida tushuncha ham sekin rivojlanadi (A.Ananев, R.E. Levina).

Bu bolalarda tovushlarni bo'g'lnlarga birlashtirishda ham qiyinchiliklar kuzatiladi. Sidirg'asiga o'qishni o'zlashtirishi uchun bola harfni faqatgina o'ziga mos tovush bilan umumlashtirishi kerak.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

1. Shomaxmudova R.Sh. Mo'minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – T., 1994
2. Mo'minov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 1993.



TARBIYACHINING BADIY O'QISH VA HIKOYA QILIB BERISHGA  
TAYYORGARLIK KO'RISHI

Xaydaraliyeva Muxtasar  
Namangan shahar 11-MTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotida bolalarni qayta hikoya qilishga o'rqtish yo'llari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Maktabgacha, hikoya, bolalar, badiiy nutq, asar.

Badiiy adabiyot bolaga jonajon o'lka tabiatini, kattalarning mehnati va hayotini, ularning qilayotgan ishlari va ko'rsatayotgan qahramonliklari, bolalar hayotidan olingan voqealarni, bolalarning o'yinlari, ermaklari va qilayotgan mehnatlarini hikoya qilib beradi. Kishilarning ichki dunyosini yoritib, ularning xarakterlari, his-tuyg'ulari, xatti-harakatlarini, shuningdek, tasvirlangan hodisalarga yozuvchining munosabatini ko'rsatib, badiiy adabiyot asarlari bolani hayajonlanishga, asar qahramonlariga achinishga yoki ularni qoralashga majbur qiladi. Eng yaxshi badiiy adabiyot asarlari bolalarda biror narsaga yaxshi-yomon, adolatli-adolatsiz, to'g'ri-noto'g'ri deb, o'zlariga xos bir tarzda axloqiy baho berish odatini tarkib toptirishga yordam beradi.

Bolalar kitobining qiziqarli mazmuni do'stlik, halollik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik namunalarini ko'rsatadi.

Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan tanishtirib borishi lozim. MTTning muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o'zlashtirib olishlariga, ularni to'g'ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari kerak.

Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko'nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o'zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg'ular va kayfiyatlarni his etishi ham lozim.

MTTda asarning mazmuni va formala-rini analiz qilishning ba'zi elementar ko'nikmasi ham tarkib toptiriladi. Tayyorlov guruhida bolalar asarda hikoya qilingan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o'z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta olishi, asarning janrin aniqlay bilishi (she'r, hikoya, ertak) lozim.

Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o'qib berilgan asar haqida savollar berish, illyustratsiyani diqqat bilan ko'zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo'lish ko'nikmalarini tarbiyalash zarur. MTTda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidagi taassurotlarni o'rtoqlashish istagi va ko'nikmasini tarbiyalashi kerak.

Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo'lган, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya'ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushuna olgan hamda his eta olgan taqdirdagina u o'zining tarbiyaviy rolini bajaradi.

Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhiarida ularning qaysi asarlar bilan tanishgailarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko'rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olish lozim. Bolalarning qiziqqan narsalarini, ularning o'zaro munosabatlarini, o'yinlarini kuzatish yaxshi kitob tanlashga ancha yordam beradi.

Mustaqillik bayrami yaqinlashib qoltanda bolalar bu kunga bog'chada, shaharda qanday tayyorgarlik ketayotganini ko'radilar, navro'z bayramiga bag'ishlangan she'rni zo'r mammuniyat bilan yod oladilar. Bahor kelib, tevarak-atrofdagi hamma narsa gullaganda bolalar bahor haqidagi asarni juda jonli idrok qiladilar. Tarbiyachi asar tanlagach, bolalarga uni qanday yetkazish lozimligini aniqlab olishi kerak. Adabiy asarni tarbiyachi kitobdan o'qib berishi yoki kitobsiz yoddan hikoya qilib berishi mumkin. Xalq ertaklarini—xalq og'zaki ijodi asarlarini bolalarga o'qib bermagan, balki hikoya qilib bergen ma'qul: aytib berish, o'qib berishga nisbatan yaxshiroq. Hikoya qilib berish — xalq ertaklari ayishning an'anaviy yo'li. She'rла rni yoddan o'qish tavsiya etiladi. Tarbiyachi she'rni yoddan o'qishda kitob bilan ishi bo'lmaydi, unga hamma bolalarni ko'zdan qochirmaslik, bolalarning asarni qanday idrok etayotganlarini kuzatish yengillashadi.

Tarbiyachi har bir yosh guruhida bolalarni juda ko'p bolalar badiiy adabiyoti asarlari bilan



tanishdirib borishi lozim. MTTning muhim vazifasi bolalarning asarlar mazmunini o’zlashtirib olishlariga, ularni to’g’ri tushunishlariga erishishdir. Bolalar asarlarning bir qismini yod olishlari, bir qismini esa matnga yaqinroq qilib aytib bera olishlari kerak. Tarbiyachi bolalarda adabiy asarni idrok qilish ko’nikmasini tarkib toptiradi. Bola asarni tinglayotib, uning mazmunini o’zlashtiribgina qolmay, balki muallif tasvirlayotgan his-tuyg’ular va kayfiyatlarni his etishi ham lozim.

MTTda asarning mazmuni va formala-rini analiz qilishning ba’zi elementar ko’nikmasi ham tarkib toptiriladi. Tayyorlov guruhida bolalar asarda hikoya qilingan asosiy qahramonlarni aniqlay olishi, ularga nisbatan o’z munosabatini (kimning nima uchun yoqqanini) ayta olishi, asarning janrin aniqlay bilishi (she’r, hikoya, ertak) lozim. Bolalarda birgalashib eshitish malakalarini, uyushqoqlik bilan savollarga javob berish va o’qib berilgan asar haqida savollar berish, illyustratsiyani diqqat bilan ko’zdan kechirish, kitobga yaxshi munosabatda bo’lish ko’nikmalarini tarbiyalash zarur. MTTda kitobga berilish, bilishga qiziqish, tinglangan asar haqidagi taassurotlarni o’rtoqlashish istagi va ko’nikmasini tarbiyalashi kerak. Bolalar kitobi bolaga tushunarli bo’lgan, uning aqli va qalbiga yetib borgan, ya’ni bola yozuvchining hikoya qilayotgan narsasini tushuna olgan hamda his eta olgan taqdirdagina u o’zining tarbiyaviy rolini bajaradi.

Tarbiyachilar bolalarning asarlar haqidagi bilimlarini mustahkamlab borish uchun oldingi yosh guruhlarida ularning qaysi asarlar bilan tanishgailarini bilishlari kerak. Buning uchun yil boshida oldingi guruh dasturini ko’rib chiqish va takrorlash materialini belgilab olish lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. U. Mahkamov “Axloq-odob saboqlari”, Toshkent- 1994yil
2. O. Xasanboeva, A. Nematova “Odobnoma” dasturi, -2001 yil.



## МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARNI AXLOQIY TARBIYALASHNING AHAMIYATI

**Abdullayeva Feruza**  
Chust tuman 2-DMTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni axloqiy tarbiya berishning o’ziga xos yo’llari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, axloqiy tarbiya, bolalar, shaxs, asar.

Hozirgi davrda axloqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy vazifalarni hal etish ko’p jihatdan jamiyatning va undagi har bir shaxsnинг axloqiy darajasiga bog’liqdir. Axloqiy tarbiya -shaxsni har tomonlama rivojlantirishning muhim tarkibiy qismidir. U bolalarga axloqiy tasavvur va bilimlarni singdirish, ularda shaxsning axloqiy histuyg’u va sifatlarini, ijobiy munosabatlар a xulq madaniyatini tarbiyalashga qaratilgan jarayondir. Axloqiy tarbiya jarayonida bola axloqiy jihatdan kamolga yetadi. Axloqiy tasavvurlarning rivojlanishi jarayonida eng avvalo ular o’zlarining boshqalar bilan bo’ladigan munosabatlarini ongli tushuna boshlaydilar; tengdoshlari va kattalar bilan bo’ladigan munosabatlarida ahloq saboqlari rivojlna boradi.

Pedagogika fani bolaning axloqiy rivojlanishida tarbiya va ta’limni muhim omil deb hisoblaydi. Pedagogika va ruxiyatga oid juda ko’p tadqiqotlar natijalarining ko’rsatishicha, maktabgacha tarbiya davri bolaning ma’naviy shakllanishida eng muhim bosqichlar. Xuddi mana shu davrda ma’lum maqsadga qaratilgan ta’lim -tarbiya ta’sirida shaxsning axloqiy sifatlari shakllana boshlaydi, 6-7 yoshga borganda esa ijobiy xulq normalarining ancha barqaror shakli yuzaga kelib, bola tevarak -atrofdagilar bilan bo’ladigan munosabatda ana shu egallab olgan ahloq qoida va normalari nuqtai nazaridan ish tutadigan bo’lib qoladi, shuning uchun bolalarga ilk yoshidan boshlab axloqiy tarbiya berib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Axloqiy tarbiyaning vazifasi, mazmuni va prinsiplari. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash vazifasi va mazmuni bolaning ma’naviy dunyosini, uning ongini, axloqiy hisrlarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash va rivojlantirishni taqozo etadi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi asosan quyidagilardir:

- 1.Bolalarda axloqiy his -tuyg’ular, tasavvurlar va xatti -harakatlarni tarbiyalash
- 2.Xulq madaniyati va ijobiy munosabatlarni tarbiyalash
- 3.Shaxsda axloqiy his -tuyg’ulami tarbiyalash
- 4.Xulqdagi salbiy hislarni barham toptirish.

Bu umumiy vazifalar yosh guruhlari bo'yicha konkretlashtiriladi va o'quv - tarbiyaviy jarayonining mazmunida o'z aksini topadi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni maktabgasha ta’lim tashkiloti dasturining maxsus bo’limida bayon qilib berilgan. Dastlabki vatanparvarlik va baynalmilalchilik his -tuyg’ularini tarbiyalash maktabgasha ta’lim tashkiloti dasturining “Tevarak -atrof va ijtimoiy hayot voqyealari bilan tamshtirish” (mashg’ulotda va mashg’ulotdan tashqari) bo’limiorqali amalga oshiriladi. Axloqiy tarbiyaning vazifasi va mazmuni maktabgasha ta’lim tashkilotida axloqiy tarbiya berishning asosiy prinsiplari va pedagogik shart -sharoitlariga rioya qilish asosida bajariladi. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar axloqiy tarbiyasining vazifasi hamda mazmuniga muvofiq uning pirsiplari ishlab chiqilgan.

**Axloqiy tarbiyaning asosiy pirinsiplari quyidagilardir:**

- g’oyaviy va tarbiyaviy ishning ma’lum maqsadga qaratilganligi;
- ta’lim -tarbiya ishiga bola shaxsni hurmat qilgan holda yondashish;
- axloqiy tarbiya ishini hayot va zamon bilan bog’lab olib borish;
- bolalarning faolligi;
- jamoada tarbiyalash;
- tarbiyaviy ishning sistemaliligi va izchilligi;
- ta’sirchanligi;
- oila, bog’cha hamda kattalar tarbiyaviy ta’sirining birligi;
- boladagi ijobiy sifatlarga suyanish;
- bola shaxsni har tomonlama rivojlantirishni ko’zda tutish.



Axloqiy tarbiya pirisiplarini pedagogik shart -sharoitlar bilan qo'shib amalga oshirish bolaning axloqiy rivojlanishiga samarali ta'sir etadi.

Olib borilgan birp qancha ilmiy ishlarning natijalari maktabgasha ta'lim tashkilotida axloqiy tarbiya berishning pedagogik shart -sharoitini belgilash imkoniyatini yaratadi. Bular:

1. O'zaro to'g'ri munosabat uslubi:

a) jamoaning katta a'zolari o'rtaida;

b) pedagogik va ota-onalar jamoasi o'rtaida;

v) kattalar va bolalar o'rtaidagi munosabat, kattalarning bolalarga munosabati. Kattalar (pedagoglar)ning bolalarga nisbatan insonparvarlik prinsipida, o'zaro hamkorlik, o'zaro yordam, hurmat munosabatida bo'lishi eng muhim shart -sharoit hisoblanadi.

2. Maktabgasha ta'lim tashkilotida o'rnatilgan qat'iy rejim.

3. Maktabgasha ta'lim tashkilotida o'z tengdoshlariga va boshqa kishilarga nisbatan ijobiy hissiy munosabatni yuzaga keltiruvchi muhit yaratish.

4. Bolalarni ahloq normalari va qoidalariga o'rgatish hamda shular asosida bola shaxsida ijobiy axloqiy his -tuyg'ulami tarbiyalash.

5. Jamoada hamma bolalar uchun teng sharoit yaratish va bolalar jamoasi o'rtaida to'g'ri munosabat o'rnatish.

6. Kun davomida bolalarning xilma -xil qiziqarli faoliyatlarini tashkil etish.

7. Bolalarning ijobiy axloqiy xulqni mashq qildiradigan shart -sharoit tug'dirish.

8. Maktabgasha ta'lim tashkiloti bilan oilaning aloqasi va boshqalar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Munavvarov A.Q. “Oila pedagogikasi” . Toshkent.: “O'qituvchi” 2001 y.

22. Inomova M.O. “Farzand nihol ota –ona bog’bon” Toshkent.:“O'qituvchi”, 1993 yil.



## FUNKTSIONAL DISLALIYA VA UNING SABABLARI

Muxammadjanova Nodira  
Uychi tuman 1-KTIMTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada matabgacha ta’lim tashkilotida bolalarni nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish yo’llari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Matabgacha, bola nutqi, bolalar, badiiy nutq, asar.

Funksional dislaliyada periferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi. Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto’g’ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyib u bilan «bola tilida» so’zlashadilar. Buning natijasida bolada tovushlarning to’g’ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga kelishi mumkin. Tovushlar talaffuzi hali yetarli, to’g’ri shakllanmagan kichik yoshdagi bolalar bilan, tili chuchuk yoki noaniq, tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimo muloqotda bo’lishi bola nutqiga salbiy ta’sir ko’rsatadi. Ko’pincha bola oilada tovushlarni noto’g’ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi. Bu esa funksional dislaliyaga sabab bo’ladi. Oiladagi ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo’ladi. Bunda tovushlarga e’tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to’g’irlamaslik, to’g’ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari kG’zda tutiladi.

Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu holda tovushlar differentsiyasi (tovushlarni farqlash) qiyinlashadi. Bolalar asosan bir-biriga o’xshash: jarangli-jarangsiz, sirg’aluvchi va shovqinli tovushlarni ajrata olmaydilar. Bu qiyinchiliklar natijasida tovushlarning to’g’ri talaffuzi uzoq vaqtga cho’zilib ketadi. Shu bilan birga, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, ayniqsa, tovushlarni almashtirish hollari, o’z navbatida, fonematik eshituvning shakllanishining qiyinlashtiradi va kelgusida nutqning umumiy rivojlanmaganligiga va o’qish-yozishda buzilishlar bo’lishiga sabab bo’ladi.

Dislaliya artikulyatsion apparat a’zolarining (til, lab, pastki jag’) harakatchanligidagi kamchiliklar natijasida ham sodir bo’ladi. Bu hol bolaning tilni kerakli holatda ushlab tura olmasligi yoki bir harakatdan ikkinchi harakatga tez o’ta olmasligida namoyon bo’ladi. Dislaliya funksional eshituvning pasayishi natijasida ham paydo bo’lishi mumkin. Bolaning aqliy rivojlanishidagi kamchiliklar ham og’ir va uzoq davom etadigan dislaliyaga sabab bo’ladi. Oligofren bolalarning 50% da tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar bo’lishi mumkin.

Dislaliya turlari:

Tovushlarni noto’g’ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin. Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo’lgan: sonor (r, l), sirg’aluvchi (s, z,) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi. Bolalarga tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarni nutqda yo’qligi, ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo’ladi. Bu holatlarning har birini batafsil ko’rib chiqamiz. Nutqda tovushlarning yo’qligi ularning so’zning boshida (masalan, randa so’zi o’rniga bola «anda»), so’zning o’rtasida (tarvuz – «tavuz»), so’zining oxirida (qor – «qo») tushib qolishida ifodalanishi mumkin.

Tovushlarni buzib (noto’g’ri) talaffuz etish SHunda ifodalanadiki, bunda tovushlarning to’g’ri talaffuzi o’rniga, shu tovushga yaqin lekin ona tili fonetika tizimida ifoda etilmaydigan tovush talaffuz etiladi. Masalan, tish aro sigmatizm, yon sigmatizm, valyar r (bunda til uchi tebranishi o’rniga yumshoq tanglay tebranadi), uvilyar r (bunda til uchi o’rniga kichik tilcha tebranadi).

Tovushlar tilning fonetik tizimida mavjud bo’lgan boshqa tovushlarga almashtirilishi mumkin. Ular quyidagicha namoyon bo’lishi mumkin:

1) hosil bo’lish usuliga ko’ra o’xshash, artikulyatsiya o’rniga ko’ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, portlovchi til orqa k va g, portlovchi til oldi t va d tovushlari (masalan, kitob so’zi o’rniga «titob», gul so’zi o’rniga «dul»);

2) hosil bo’lish o’rniga ko’ra o’xshash, hosil bo’lish usuliga ko’ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, sirg’aluvchi til oldi s tovushi, portlovchi til oldi t tovushi bilan (soat o’rniga «toat»);



3) hosil bo’lish usuliga ko’ra o’xhash va artikulyatsiya organlarining ishtirokiga ko’ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, s tovushi, lab-tish a’zolari ishtirokida hosil bo’ladigan f tovushi bilan (sumka so’zi o’rniga «fumka»);

4) hosil bo’lish usuli va o’rniga ko’ra o’xhash, ovoz ishtirokiga ko’ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, jarangli tovushlar jarangsiz tovushlar bilan almashtiriladi (bola – «pola», paypoq – «bayboq», zina – «sina», gul – «kul»).

Buzilgan tovushlarning soniga qarab dislaliya yana oddiy va murakkab turlarga bo’linadi. Agarda to’rtta tovush talaffuzida kamchilik bo’lsa, oddiy dislaliya, agar beshta va undan ortiq tovush talaffuzida kamchilik bo’lsa, bu – murakkab dislaliya deb ataladi.

Agar bir fonetik gruppaga kiruvchi tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo’lsa (masalan, sirg’aluvchi s, z, j) bu-monomorf dislaliya. Agar u ikki va undan ortiq artikulyatsiya guruhiga tegishli bo’lsa (masalan, rotatsizm, sigmatizm va lambda-sizm), bu – polimorf dislaliya bo’ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.**

1. Shomaxmudova R.Sh. Mo’mnova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – T., 1994
2. Mo’mnov L., Ayupova M. Logopediya. – T., 1993.



## МАКТАБГАЧА ТА’ЛИМ ТАШКИЛОТИДА МАЗМУНЛИ РАСМ СОЛИШГА О’РГАТИШНИНГ ВАЗИФАЛАРИ

Turapova Gulnoza  
Kosonsoy tuman 17-MTT tarbiyachisi.

**Annotatsiya:** maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotida bolalarga rasm chizishning asosiy maqsadi yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Maktabgacha, atrof-muhit, bolalar, badiiy nutq, asar.

Mazmunli rasm chizishning asosiy maqsadi bolaning atrof-muhitdan oлган taassurotlarini ifodalashga о’ргатишdir. Mazmunli rasm-bu bir necha mazmunning ma’lum rangda tasvirlanishini tushuniladi. Bolalar qaysi mazmun bo‘yicha rasm chizadilar? Bolalar kichik hikoya, ertak asosida va bolalarni o‘rab turgan tevarak-atrofni, tabiatni chizishga harakat qiladilar. Bolalar tomonidan chizilgan «Biz shanbalikda» va «Kech kuz» rasmlari bunga misol bo‘la oladi. Bolalar bilan olib boriladigan bunday mashg‘ulotlar ularning har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Bunda bolalarning aqliy qobiliyatni rivojlanadi.

Bu bolada asta-sekinlik bilan rivojlanadi, shuning uchun mazmunli rasm chizish o‘rta guruhdan boshlab kiritilgan. Bunda ham yonma-yon turgan 2-3 ta predmetni tasviriy о’ргатилади. mazmunni tasvirlashda predmetlarning bir-biridan ajratish uchun uning razmerini, fazodagi o‘rinlariga qarab, predmetlarning katta yoki kichikligini о’ргатish kerak. Maktabgacha yoshdagи bola uchun predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlay olish juda qiyin. Mazmunli rasm chizishni, bog‘chada о’ргатишning umumiyligi vazifalari quyidagilar:

- Mavzuning mazmunini ifodalashga uning asosini ajratishga о’ргатish.
- Ob’ektlar orasidagi о‘zaro aloqani tasvirlashga о’ргатish.
- Ob’ektlar orasidagi proporsional joylashuvni tasvirlashga va ularning fazodagi o‘rinlarini ko‘rsatishga о’ргатish.

O‘rta guruhda mazmunli rasm chizishga о’ргатишning mazmuni va vazifalari. O‘rta guruh bolalariga rasm mashg‘ulotlari asosan yil boshidan o‘ta boshlanadi, sababi kichik gurux bolalariga qaraganda ular ma’lum mazmun asosida lo‘nda qilib rasm ishlay olish qobiliyatiga egadirlar. Bolalarda rasm chizish malakasini rivojlantirish maqsadida 2-3 predmetni ko‘rsatish mashqlari bilan boshlash maqsadga muvofiqdir. Rasm ishlash mazmuni quyidagilardir:

- Mazmuni jihatdan bir-biriga o‘xshash 2-3 predmetli rasm chizdirish.
- Bir necha predmetlarning joyylanishini belgilash.

Bola 4 yoshdan boshlab predmetlarning yonma-yon joylanishini odamlarning ko‘rinishini faqat old tomonidan, hayvonlarning ko‘rinishini faqat yon tomonidan bir yo‘lda chiza olish qibiliyatiga egadirlar. Masalan: “Bolalarnig qishki o‘yinlari”.

O‘rta guruxlarda rasm chizish orqali bolalarning og‘zaki nutqini o‘stirish bilan ularni o‘rab turgan tevarak-atrof bilan ham tanishtirish maqsadga muvofiqdir. Bu yoshdagи bolalar uchun quyidagi rasmlarni tavsiya qilish mumkin:

- “Qizcha uy atrofida o‘ynayapti”.
- «Qish, bolalar qorbobo yasayaptilar».
- “Bo‘g‘irsoq”, “CHipor tovuq”.

O‘rta guruhdagi bolalar rasm chizishni faqat bir yo‘nalishda chizishlaridan tashqari bir varaqni to‘ldirib chizish malakalarini ham rivojlantirib boradi. Ma’lum narsani ko‘rib tasavvur qilgan holda rasm chizadi, uning aqliy qobiliyati rivojlanadi, o‘sib boradi. Har bir mashg‘ulot bolalarning aqliy, estetik ruhda tarbiyalashga, jamoat ishlarini bajara olishiga asos bo‘ladi. Bu mashg‘ulotlarni o‘tkazish asosan bolalarning kuzatuvchanligi asosida olib boriladi, shunda ularning og‘zaki nutqi, mustaqil fikrlay olishi, har-xil mavzularda rasm chiza olish ko‘nikmalari rivojlanadi. Bolalarida rasm chizish ko‘nikmasi asosan og‘zaki nutq orqali amalga oshiriladi. Masalan: bola bironqa qiz, uy rasmlarini chizib, unga kichik ertak ham to‘qishi mumkin. Ma’lum maqsadli rasm bolaga ko‘rsatilayotganda aniq maqsadga ega bo‘lishi kerak. Bola ko‘rsatilayotgan rasmni aniq ko‘rib chiza oladi, lekin uni yon tomonini, ustini chizishni bilmasligi mumkin. Talabalarga ishlangan rasmlar namunasidan ko‘rsatib quyidagilarga alohida e’tibor berishlarini eslatish kerak. Masalan: predmetlarning proporsional, simmetrik joylanganligi uylar, daraxtlar, samolyotning parvoz qilayotganini chizdirish orqali bolalarda taxlil-sintez usulidan foydalanish



muximdir.

Yuqorida qayd qilinganidek, quyidagilarga ahamiyat berish kerak:

- Mavzuning mazmuni aniq bo‘lishiga;
- Ob’ektlar orasidagi bog‘lanishga;
- Ma’lum maqsadga yo‘naltirilgan mavzu bo‘lishiga e’tibor berish kerak.

Bu yoshdagi bolalarga rangli qog‘ozlar berilib maqsad aytildi. Masalan, bola ko‘k rangda-o‘tlarni, havo rangda-suv, sariq rangda-qum ko‘rinishida tasvirlay oladilar. Masalan, “Baliqlar suzyapti”, “Jo‘jalar o‘t ustida o‘ynayaptilar” ni ko‘rsatish. Bolalarning aqliy qobiliyatlarini tekshirish maqsadida tarbiyachi bir predmet yoki jismni ko‘rsatib uning varaq ustida joylanishini so‘roqlar bergen holda suxbat orqali aniq maqsad asosida rasm chizdirish kerak. Bunda albatta tarbiyachining bilimdonligi katta maxorat talab qiladi. Bolalarning bir yarim yilda chizishgan rasmlari o‘lchovlari asosan bir xil bola chizgan rasmlarini past va balandligini ko‘rsatish va farqini tushuntirish lozimdir. To‘rt yoshli bolalarda rasm chizish ko‘nikmalari o‘sib boradi, ular kattalar chizgan rasmlarni tomosha qilgan holda taqlid qilib rasm chizishga urina boshlaydilar. Hoh ota-on, hoh tarbiyachi bola tomonidan chizilgan rasmlarni bola oldida baxolashi kerak. Bolalar o‘rtoqlarining chizgan rasmlarini yaxshi, yomon va xatolarini ko‘rsatishlari kerak.

Quyidagi vazifalari bor:

- Bir-biriga mazmunan bog‘liq 2-3 ta predmetni tasvirlashga o‘rgatish.
- Kompozitsion qobiliyatlarni o‘stirish (1 ta chiziqdagi bir nechta predmetni joylashtirish yoki yonma-yon yoki butun varaqda osmon va erni chizish).

Bolalarga beriladigan mavzular qiyin emas: uy, uyning yonida daraxti o‘syapti, skameyka turibdi; uy yoki daraxt yonida qizcha sayr qilib yuribdi, o‘tloqda jo‘jalar sayr qilishyapti; o‘t, gullar, quyosh nur sochyapti. Bu rasmlarda mazmunli rivojlanishni bolalar ko‘rsatishmaydi. Bolalar 2-3 predmetni yonma-yon chizishadi. ular orasida hech qanday harakat bog‘lanmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. G.A.Amirova, A.P.Sulaymonova, B.R.Djuraeva “Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida applikatsiya mashg‘ulotlari” .-Toshkent, “Fan va texnologiyalar” 2014 yil.
2. R.Xasanov, X.Egamov «Tasviriy san’at darslari» «O’qituvchi». T.: 1995.



## O'QUVCHILARDA O'QUV QOBILYATINI RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

**Adizov Azim Tolibovich**  
Buxoro innovatsiyalar Universiteti  
Pedagogika yo'nalishi 2 – bosqich magistranti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada o'quvchilarda o'quv jarayonini tashkil etishda zamonaviy kompetensiyalarning rivojlantirish, guruhlarda ishslash shaxsga yo'naltirilgan ta'lism texnologiyalari haqida yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** shaxsga yo'naltirilgan ta'lism, tanqidiy ijodiy fikrlash, kreativ fikrlash, ijtimoiylashtirish, guruhlarda ishslash.

Globallashuv sharoitida ta'lism shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rinn tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lism oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda.

Zamonaviy sharoitda ta'lism jarayonining barcha imkoniyatlariga ko'ra shaxsni rivojlantirish, ijtimoiylashtirish va unda mustaqil, tanqidiy, ijodiy fikrlash qobilyatlarini tarbiyalashga yo'naltirilishi talab qilinmoqda. O'zida ana shu imkoniyatlarni namoyon eta olgan ta'lism shaxsga yo'naltirilgan ta'lism deb nomlanadi.

Guruhlarda ishslash – ta'lism oluvchilarning faoliyatini tashkil qilishning shunday shakli, u o'quv guruhrarini, ma'lum bir vazifani hamkorlikda ochish uchun vaqtinchalik mikroguruhlarga ajratishni talab qiladi.

Ta'lism oluvchilarga, qo'yilgan vazifaning mazmunini, uni yechish yo'llarini va usullarini belgilashni muhokama qilish taklif qilinadi. Bunda ilgari surilayotgan takliflarni hamkorlikda baholash orqali ularni amalga oshirish, bajarilgan ishlarni birgalikda tahlil qilish, hamkorlikda topilgan natijani oldin shakllantirib, so'ngra taqdim etish so'raladi.

Jahoning rivojlangan mamlakatlarining ta'lism tizimidagi ilg'or tajribalarni o'rganish uzlusiz ta'lism jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash zarur ekanligini ko'rsatadi.

Uzlusiz ta'lism jarayonida o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil etishda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutiladi:

1. Davlatimizni kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va shaxsning mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni qondirish maqsadida o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qo'llashga o'rgatish;

2. Ta'lism mazmunini muammoli o'quv vaziyatlarni yaratish orqali o'rganish asnosida o'quvchilarni fanni o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxs sifatini shakllantirish.

3. O'quvchilarni o'quv bilish faoliyatini aniq ob'yektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga o'rgatish, DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish barobarida o'quvchilar tomonidan ijodiy faoliyat tajribalarini egallashiga erishish.

4. O'quvchilarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarlik natijasida fan yo'naliishiga yo'llash.

5. Fanlardan o'zlashtirilgan ilmiy-nazariy bilimlarni aniq va jarayonli muammoli vaziyatlarda amaliyotda qo'llash orqali o'quvchilarni mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati mavjud.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan o'qitishning asosiya mohiyati darslarda tashkil etiladigan ta'lism - tarbiya jarayonida o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy hayoti davomida, kelajakda kasbiy va ijtimoiy faoliyatni davomida qo'llay olish kompetensiyalari shakllantiriladi.

O'quvchilar kelgusi hayoti davomida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o'z o'rmini egallashi, mazkur jarayonda duch keladigan muammolarni yechimini hal etish, eng muhimi o'z sohasi va kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarni bilishi zarur.

Umumiy o'rta ta'lism maktablari zimmasiga ta'lism-tarbiya jarayoni orqali o'quvchilarda



tayanch kompetensiyalar, kommunikativ, axborot bilan ishlay olish, shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyalari, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo‘lish hamda foydalanish kompetensiyalari yuklangan.

Ta’lim-tarbiya jarayonidagi kompetansiyaviy yondashuv o‘qitish maqsadlariga erishish uchun ta’lim mazmunini boyitish o‘quv jarayonini inovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish va natijalarini tahlil etish imkonini beradigan umumiy prensiplar yig‘indisi hisoblanadi.

Ular jumlasiga quyidagilar kiritiladi:

- o‘quvchilarni mustaqil hayotdagи turli faoliyati va yo‘nalishlari muammolarni o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarni, hayotiy tajribalar, kuzatishlar, shaxsiy xulosalar asosida hal etish, muammoli vaziyatlarda talab etiladigan faoliyatni maqsadga muvofiq bajarish qobiliyatini hal etish;

- Ta’lim tarbiya jarayonini tashkil etishda asosiy maqsad o‘quvchilarda DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, axborot bilan ishlash, kommunikativ ko‘nikmalarni egallash, matematik savodxonlik, ijtimoiy faollilikka ega bo‘lish, o‘quv muammolarni mustaqil hal etish tajribalarini egallashi lozim;

- Ta’lim mazmunini tanlash va metodik ta’minotini yaratishda o‘quvchilarning qiziqishlarini orttirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, axloqiy, g‘oyaviy-siyosiy, ekologik muammolarni hal etish, didaktik jihatdan qayta ishlangan o‘zida o‘quvchilarni avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini kutilmagan vaziyatlarda qo’llash, o‘zlarining hayotiy tajribalarini, kuzatishlari yuzasidan ilmiy xulosalar chiqarishga imkon beradigan o‘quv topshiriqlari bo‘lishiga imkon qaratish

- Ta’lim-tarbiya jarayoninig natijalari ya’ni o‘quvchilar tomonidan kompetensiyaga asos bo‘ladigan egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirganlik darajalariga qarab baholanadi

- kompetensiyaviy yondashuvda o‘qitish maqsadlari o‘quvchilar tomonidan o‘z-o‘zini anglash, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quv maqsadlariga erishish yo‘llarini tushunish, o‘quvchilarni o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish, o‘quvchilarni shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish orqali jamiyat va mustaqil hayotga moslashuvini shakllantirish.

Kompetensiyalarni tarkib toptirish va usullari va shaxsiy hayotdagи ahamiyatiga ko‘ra quyidagi darajalarga ajratiladi. O‘quvchi shaxsning umumiy rivojlanishiga zamin tayyorlaydigan kompetensiyalar tayanch kompetensiyalar, faqat o‘quv fani orqali tarkibi toptiriladigan kompetensiyalar xususiy kompetensiyalar deyiladi.

Fanlardan o‘quvchining kompetensiyasi – fan bo‘yicha egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik hayotda duch keladigan amaliy va nazariy masalalarni yechda foydalanish va amalliyotda qo‘llay olish qobiliyatidir.

O‘qituvchilarda o‘quvchilarda kompetensiyani tarkibi toptirish maqsadida o‘quv fani mazmunini tahlil etishi, o‘qitishning barcha shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, ishlab chiqarish korxonalariga sayohat va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda olib boriladigan ishlarni tizim va bir-biriga uzviy ravishda amalga oshirishni loyihalash lozim.

Bilish xursandchiligi o‘quvchini faollashtiradi, bu olingen bilimlarni yanada chuqurlashtiradi va mustahkamlaydi.

O‘quvchining darsdagi faolligi, ruhiy holati va kayfiyati oldin ko‘p hollarda qanday bo‘lgan va alohida hollarda qanday o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, degan nigoh bilan masoфа munosabatini tobora yaqinlashtirib borish maqsadga muvofiqdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqar Zunnunov Pedagogika nazariyasi T: “A’loqachi” 2006
2. Asqarova. O“ “Pedagogika” Toshkent “Fan nashriyoti” 2004 yil
3. Davletshin.M.G Yosh davrlari va pedagogik psixologiya Toshkent “Fan nashriyoti” 2013
4. Internet ma’lumotlari.



## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING BILISH FAOLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Jaxangirova Xamida Abdiraxmanovna

Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumani  
3-sloni maktabning Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ta’lim tizimidagi eng murakkab va mashaqqatli ta’lim turi bu – boshlang‘ich ta’lim bo’lib, bunda o‘qituvchining faoliyati hal qiluvchi hisoblanadi. Ushbu maqolada bo’shlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish usullari haqida mulohaza yuritilgan.

**Kalit so’zlar:** bilish, ta’lim, o‘quvchi, jarayon, faoliyat, konsepsiya, usul, maqsad.

Jahonda boshlang‘ich ta’limning nazariy-metodologik jihatlarini takomillashtirish, o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion usullardan foydalanish jarayoni modelini yaratish, kichik yoshdagagi o‘quvchilarda bilish faoliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv vaziyatlarining didaktik-psixologik imkoniyatlari va metodlarini aniqlashtirish, o‘qitish va rivojlantirish jarayonining o‘zaro aloqadorligini didaktik jihatdan tadqiq etish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur ilmiy izlanishlar tahlili shuni ko‘rsatmoqdiki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish faoliyatini rivojlantiruvchi o‘quv vaziyatlarini tashkil etishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon modelini yaratish, kognitiv xarakterdagi maxsus didaktik jarayonlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatlarini kengaytirishga xizmat qiladigan didaktik vaziyatlarni takomillashtirish, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida bilish faoliyatining rivojlanganligini baholash mezonlarini aniqlashtirish muammolari hozirgi vaqtida alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi” hamda boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarda o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilgan. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasida yetuk, ijtimoiylashgan, ma’naviy jihatdan shakllangan shaxsni yetishtirish masalasi ustivor qilib qo‘yilgan. Bunday maqsadga erishish uchun dastlab o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirish lozim. O‘quvchilarning bilish faoliyatları esa atrof-muhit, tabiat va ijtimoiy hayotga nisbatan faoliyatli yondashuv natijasida rivojlanadi. Bunday munosabat esa o‘zbek xalqining ijtimoiy-tarixiy tajribasini o‘zlashtirish natijasida vujudga keladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatlarini rivojlantirish ularning maylli-ehtiyojli, hissiy-ixtiyoriy, kognitiv sohalariga mujassam tarzda ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshadi. O‘quvchilarning bilish qiziqishlarini rivojlantirishdan ko‘zda tutiladigan asosiy maqsad erkinlik hamda fikriy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Har qanday faoliyatni egallash uni tashkil etuvchi harakatlar va operatsiyalarni o‘zlashtirishdan boshlanadi. Bu harakatlar bilish va bajarish jarayonining tarkibiy qismlarini tashkil etadi. Bularning barchasi bilish jarayoni oldiga qo‘yilgan maqsadga erishishga yo‘naltirilgandir.

O‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy yondashuvlar ikkita asosiy yo‘nalishni o‘ziga qamrab oladi: a) didaktik yondashuvlar, u asosiy e’tibor o‘qituvchilar faoliyati, o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan metodik vositalarning o‘rnini o‘rganishga qaratilgan; b) psixologik yondashuv, bu jarayonda o‘quvchilarning o‘zlarini ularning psixologik-pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etilgan bilish faoliyatidan foydalanadilar.

Bugungi kunda mavjud bo‘lgan pedagogik-psixologik nazariyalar didaktikaning asosiy negizi sifatida o‘quvchilar harakatlarini qanday tashkil etish kerak, degan savolga javob izlashi lozim. Chunki o‘quvchilarning bilish faoliyatları muayyan o‘quv muammolarini yechishga yo‘naltirilishi kerak. Buning uchun faoliyat usullari va metodlari yig‘indisidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu metodlar va usullar o‘quvchilarning muayyan maqsadga erishishlariga ko‘maklashishi lozim.

O‘quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish deganda o‘quvchi hamda o‘qituvchilarning izchil harakatlarini ifodalovchi tizim tushuniladi. Mazkur tizim didaktik shart-sharoitlarni vujudga keltirishni ta’minlashi, o‘quv topshiriqlarini bajarish va ushbu jarayonni maqsadga muvofiq tarzda boshqarish imkonini beruvchi tizim bo‘lishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonida bilish jarayonini faollashtirish imkoniyatlari



modernizatsiyalashgan ta’lim mazmuni va vositalarini amaliyotga keng tatbiq etish orqali ta’milnadi. O’quvchilarning shaxsiy imkoniyatlarini kengaytirish uzlusiz ta’limning barcha bosqichlarida amalga oshiriladi. Mazkur tizimda boshlang‘ich ta’lim alohida o‘rin egallaydi. Chunki bu bosqichda faoliyatning yangi turlari o‘zlashtiriladi hamda o‘quvchining shaxsiy rivojlanishi uchun zamin hosil qilinadi. Bu o‘rinda bilish faoliyatining vazifaviy jihatlarini rivojlantirish haqidagina emas, balki o‘quvchilar faoliyatining barcha turlari, jumladan, ularning nutq faoliyati, fikrlash faoliyati kabilalar ham rivojlantiriladi. Chunki bunday faoliyat turlari o‘quvchilarning intellektual jihatdan to‘laqonli rivojlanishiga imkon beradi. O‘quvchining nutqi muloqot hamda verbal fikriy faoliyati vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. O‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, ularga til vositalarini o‘rgatish natijasida o‘quvchilar nafaqat so‘zlashish, balki fikrlashni ham o‘rganadilar.

Pedagogika hamda psixologiya sohasidagi tadqiqotlarning natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar o‘quvchilarning qiyinchiliklarni aniq va noaniq tarzda tasavvur qilishlariga imkon beradi. Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish esa, yangi bilimlar, harakatning yangi usullarini o‘zlashtirishni taqozo qiladi.

Muammoli vaziyatlar o‘quv-biluv faoliyatini harakatlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo‘ladi. Muammoli vaziyatlarda o‘quvchi ziddiyatlarga qarama-qarshi qo‘yilib, bilish qiyinchiliklarni yechishga undaladi va mazkur vaziyatdan chiqish uchun mustaqil harakatlanish yo‘lini izlaydi. Kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilar katta yoshdagи o‘quvchilarga nisbatan bir qator afzallikkarga ega bo‘ladilar. Shuning uchun ham, kichik mакtab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy quvvatlarini rivojlantirish bir muncha qulay hisoblanadi. Ular ongini mavjud qoliplardan xalos qilish oson kechadi. Shuning uchun ham o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini rivojlantirishda muammoli vaziyatlardan foydalanish ularni rivojlantirishda samaradorlikka erishish imkonini beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. B.S.Abdullayeva va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiysi. T.: 2015.
2. Q.R.To’xsanov. Boshlang‘ich ta’lim sifat va samaradorligini oshirishning pedagogik-psixologik asoslari. Buxoro.: 2021.



## JISMONIY TARBIYA DARSLARI ORQALI O'UVCHLARNI HARAKAT QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Jumaev A.

SamDChTI “Gumanitar fanlar va axborot texnologiyalari” kafedrasи  
asistent o'qituvchisi

**Annotasiya:** Hozirgi kun ta'limgarayonida yuksak intellektual salohiyatga ega, raqobatbardosh sog'lom avlodni tayyorlashda pedagogik texnologiyalarni keng joriy etilishi va har tomonlama barkamol, yuksak ma'naviyatli shaxsni shakllanlantirishning istiqbolli yo'llarini izlab topishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

**Kalit so'zlar:** Jismoniy tarbiya, harakat qobilyatlari, 5-9 sinf o'quvchilar, pedagogik texnologiyalari, kompetensiya.

Jismoniy tarbiya jarayonida o'quvchilarini harakat qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy kompetensiyaviy jaroyoni qanday namoyon bo'lishini aniqlash jismoniy tarbiya darsi bilan bog'liq hisoblanadi. Masalan, maqsadga erishish uchun jismoniy ta'limgarayonida orqali o'zlariga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, salomatlik, individual darslarda malaka va ko'nikmalarni egallash ishlarini yaxshilashga yo'naltirilgan jismoniy madaniyat, kasalliklarning oldini olish kabi vositalar orqali jismoniy madaniyat tarbiyalanuvchilarini bilim, ko'nikma, individual salomatlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu borada, jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik jarayon natijalari samaradorligini oshirishda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ta'limgarayonida qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ta'limgarayonida qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari berish vazifalari orqali 5-9 sinf o'quvchilarini orasida jismoniy tarbiya dasturda tavsiya qilingan mashqlarni bajarishga o'rganilgan mashqlarni mustahkamlash va takomillashtirishga shuningdek malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga hamda o'rganilgan mashqlarni turli sharoitda amaliyotda qo'llashga o'rnatishga yo'naltiriladi. Shuningdek, ta'limgarayonida vazifalarini izchil ravishda bajarish jismoniy tarbiya dasturidagi butun o'quv materiallarini izchil va mustahkam o'rganishni talab etadi.

Hozirgi vaqtida jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari hisoblangan kompetensiyaviy yondoshuv asosi keng rivojlanmoqda. Ta'limgarayonida yangilik sifatida kirib kelgan kompetensiya tushunchasi va ularni pedagogik jaroyonda tutgan o'rni haqida qancha ta'kidlansa shuncha oz. Kompetensiya (lot. competo — erishyapman, munosibman, loyiqlaman)

1) muayyan davlat organi (mahallyi o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdar shaxsning konun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;

2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba ma'nolarini anglatadi. [vikepe]

Kompetensiya – ma'lum bir sohada samarali faoliyat olib borish uchun zarur bo'lgan mutaxassisning ta'limiyligi qo'yilgan talabdir. U davlat ixtiyorida bo'lgan, oldindan belgilangan ijtimoiy talab bo'lib, u o'quvchi (ishchi)ning muayyan sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun zarur bo'lgan ta'limiyligi (professional) tayyorgarligiga nisbatan qo'yiladi.

Kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limgarayonida o'quvchilarining egallangan bilim, ko'nikma va malakalarini o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish imkoniyatidir. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limgarayonida o'quvchilar mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan o'z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog'lom raqobat hamda umummadaniy ko'nikmalarini shakllantiradi.

Bundan tashqari, ta'limgarayonida har bir o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilar, shu fanning o'ziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli xususiy kompetensiyalar ham shakllantiriladi. [3]

Kompetensiyali yondashuv, inson faoliyatida har tomonlama kompetenlilikni shakllantirish hozirgi zamondagi jamiyati va ta'liming asosiy sharti hisoblanadi. Bu talab jismoniy tarbiya darslarida ham harakat qobilyatlarini rivojlantirishning asosiy pedagogik asoslari hisoblanadi. Bugungi kunda dunyo ta'limiini yangilashning asosiy yo'naliishi ta'limgarayonida faoliyatli



yondashuv orqali dunyoni, hayotni, kasbiy faoliyatni yaxlit tizimli ko‘ra olish, unda tizimli faoliyat ko‘rsatish, yangi-yangi muammo va topshiriqlarni hal eta olish tajribasini shakllantirishni taqozo etmoqda.

Umumiy o‘rta ta’limning 5-9 sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirish dars jarayonida muvafaqqiyatli tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda yosh avlodning jamiyat rivojiga mos bilim, ko‘nikma va malakalar egasi bo‘lishi muhimligini ta’kidlaydi. Jumladan, jismoniy tarbiya mashqlari o‘quvchilarida harakat qobilyatlarini shakllantiribgina qolmay, o‘quvchilarda ta’lim asoslarini anglash ko‘nikmasini shakllantirishga yo‘naltirish alohida e’tiborni talab etadi. Shu jihatdan olib qaraganda umumiyoq o‘rta ta’lim yo‘nalishida tadqiq qilinishi lozim bo‘lgan muhim masalalar tizimida o‘quvchilarni zamonaviy sport usullari asosida estetik tarbiyalash, harakat qobilyatlarini rivojlantirish o‘yinlardan foydalanishning pedagogik tizimini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq etishning yangi uslubiy yondashuvlarini joriy etishning mazmuni va metodikasini ishlab chiqish muammosi utuvor tarzda qarilishi lozim.[1]

Kompetensiiali yondashuv asosida jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari dars mashg‘ulotlarini sifatini belgilovchi komponentlar umumiyligi bilan ifodalanadi. Jismoniy tarbiya jarayonida o‘rgatish “inson o‘z harakatlarining to’laqonli boshqarish usullarini tizimli o‘zlashtirishi, ushbu yo‘llar orqali hayot xazinasi uchun zarur bo‘lgan harakat ko‘nikma va malakalari bilan bog‘liq bilmalar” deb ataladigan jismoniy ta’lim qismini ta’minlaydi. [2] Bu elementlar o‘zaro uzviy bog‘langan va darsning xarakterli komponentlari hisoblanib, bunda o‘quvchilar yangi harakat faoliyatini bajara olish ko‘nikmasini yuzaga keltiradi, qisman bo‘lsada harakat texnikasi haqida asosiy bilimga ega bo‘lish, harakat tajribasiga egaligi, yetarli darajadagi jismoniy tayyorgarlik, yangi harakatlar tizimini tuzish jarayonida ijodiy fikrlash qobilyatini o‘zlashtiradi.

Xususan, harakat ko‘nikmasi- tushunchasi shunday darajaki, harakat faoliyati jarayonida harakatlarning noturg‘un chalg‘ituvchi omillari va natijaiaming o‘zgaruvchanligini ongli ravishda boshqarishdan iborat. Jismoniy tarbiyada harakat ko‘nikmalarining ahamiyati turlicha bolishi mumkin. Ayrim vaziyatlarda ko‘nikma malakaga aylanishi mumkin, agarda harakat faoliyati texnikasini takomillashgan darajada egallaganda erishish mumkin. Boshqa holatlarda harakat ko‘nikmalari navbatsiz malakaga aylanish jarayonida shakllanadi. Ular ushbu sharoitda yordamchi hisoblanadi. Masalan, maktabda jismoniy madaniyat dasturi aynan ko‘nikma darajasida o‘zlashtirilishi lozim. Harakat ko‘nikmalari katta ta’limiy ahamiyatga ega bo‘lib, ulaming asosi harakatlami analiz va sintez qilishga yo‘naltirilgan faol ijodiy fikrlash hisoblanadi. [2]

Umumiy o‘rta ta’limning 5-9 sinf o‘quvchilarining jismoniy tarbiya darslarida harakat qobilyatlarini rivojlantirish mexanizmi o‘quvchilaning sog‘lom shakllanishiga poydevor vazifasini o‘taydi. Shunday ekan jismoniy madaniyat ta’limini tashkil etishda zamonaviy ta’lim texnologiyalari asosida tashkil etish ta’limning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim texnologiyalarini jismoniy madaniyat ta’limi jarayoniga joriy etish, balki o‘qituvchilar jamoasi pedagogik maxoratini doimiy oshirib borishni, o‘quv-tarbiya jarayonini yuksak nazariy-uslubiy darajada amalga oshirishga tayyorlashni, o‘qitish va tarbiyalashning ilg‘or usullari, shakllari va vositalarini qo’llash ko‘nikmalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

### Foydalilanigan adabiyot ro‘yxati:

1. Zokirov U.M. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiyada sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishning shakllari. “Xalq ta’limi” O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining ilmiy-metodik jurnali. № 5, 38-41. (2021).
2. Matnazarov O’.L. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. 0’quv qo‘llanma. T: “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2022.: 163 b.
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kompetensiya>
- 4.<https://uz.goodinternet.org/uz/sections/pedagoglar/talim-va-men/kompetensiya-nima>



## BALALARDÍ WATANSÚYIWSHILIKKE TÁRBIYALAWDA XALÍQ AWIZEKI DÓRETPELERINIŃ XIZMETI

**Qosimbetova Ziywar Esbosinovna-**  
Ájiniyaz atındaǵı NMPI magistrantı  
kosimbetovaziywar@gmail.com

**Annotaciya.** Maqalada balalardı watansúyiwshilikke tárbiyalaw xalıq dóretpeleri, ayrıqsha «Alpamıs» dástanı misalında analizlendi.

**Gilt sózler.** ruwxıy-etikalıq kózqaras, watansúyiwshilik, xalıq awizeki dóretpeleri, dástan, patriotlıq.

Tariyxıy estelikler hám xalıq dóretpeleri menen jaqınnan tanısar ekenbiz, olarda berilgen tereń pikir hám ideyalar, ruwxıy - etikalıq kózqaraslar, turmislıq filosofiyası, pedagogikalıq bilimler búgingi dáwirimizde de óz áhmiyetin joǵaltpaǵan. Sebebi, xalıq awizeki dóretiwshiliginde ruwxıy-etikalıq tárbiya máseleleri sawlelendirilgen.

Xalıq awizeki dóretpeleri xalıqtıń payda boliwı menen payda boladı hám rawajlanadı. Ol arqalı xalıqtıń arzıw-úmitleri, kóz-qarasları, turmısı keń aytılıdı. Qaraqalpaq xalıq awizeki dóretiwshılıgi úlgilerinen naqıl-maqal aytısıw, jańıltپash aytıw, qosıq, ertek, dástanlarda bala tárbiyasını belgili bir ayrıqshalıǵı ózinde sawlelengen hám olarda batırılıq, watansúyiwshilik sezimleri obraszlar arqalı balalargá unamlı tásirin tiygizedi. Biz bul maqalamızda xalıq awizeki dóretpesinen biri dástanlar hám olardıń balalardı batırılıqqa, watansúyiwshilikke tárbiyalawdaǵı xizmeti haqqında ilimiyy-teoriyalıq hám ámelij pikirlerdi keltirdik.

Dástan -qıssı, gurriń, tariyp, hádiye mánilerin ańlatadı. Ol keń tarqalǵan etnopedagogikalıq janr bolıp, xalıqtıń ruwxıy-turmısı, gúresi, etikalıq-estetikalıq kóz-qarasları, ádalat, azatlıq, tıňishlıq, watandı súyiw, adamgershilik, doslıq siyaqlı tárbiyalıq bilimdi óz ishine aladı.

Dástanlarda kámıl insan, shaxs tárbiyası ulıwmalasqan, tiplik formada beriledi. Joqarı adamgershilik minez-qulqı asa arttırip súwretlenedi. Sol sebepli tıńlawshıda dástan qaharmanlarının órnek alıw sezimi tuwiladı. Dástanlardı baqsılar hám jırawlar jırlaydı. «Baqsı» manǵolsha hám buryatsha «baxsha», «baǵsha» sózlerinen alıngan bolıp, «ustaz», «ağartıwshi» degen mánilerdi ańlatadı.

Jaslardı márılık, hadallıq, batırılıq ruwxında tárbiyalawda ideya-tematikası hám tárbiyalıq áhmiyeti jaǵınan «Alpamıs» dástanı bizge watandı súyiw paziyletlerinen sabaq beredi. Ádıl hám haqıyatshıl boliwǵa, óz jurtın, shańaraǵın, qorǵanın qorǵawǵa, dostın, ar-namısın, átababalarımızdıń muqaddes qábirlerin, tuwilǵan jerimizdiń hár qanday shegarasın qorǵawǵa úyretedi.

«Alpamıs» dástanı dóretiwshilik oylawımız, ruwxıy baylıǵımızdıń úlgisi bolıp, tariyxıy ózligimizdiń qanshelli tereń ekeni, xalqımız qanday ortalıqta qáliplesip, rawajlanganın, qıynshılıqlardı qanday jeńip shıqqanın anıq súwretlep beredi. Mısalı:

Mudam jortqaniń erme edi,  
Qulaqtan alganıń ter me edi,  
Kelgenler bizden zor ma edi,  
Ne kórdiń qara at, ne kórdiń?

-dástandaǵı kelgenler bizden zor ma edi? –degen ritorikalıq soraw arqalı balalardı márılık boliwǵa, watandı qorǵawǵa shaqırıwı kózge taslanadı. Bunda at obrazı batırılıqtıń tımsalında berilgen.

Begler qurǵan shatır ma,  
Aldında jolbarıs jatır ma,  
Kelgenler bizden batır ma,  
Ne kórdiń qara at ,ne kórdiń?

Demek, watandı qorǵawda aldińda qanday tosıqlar bolsa da izge sheginbewiń kerek, aldińda jolbarıs turşa da izge qaytpa degen mazmundaǵı tárbiyalıq qatarlar balalardı dáwjürek, batır hám usınday patriotlıq sezimler menen watansúyiwshilikke tárbiyalaydı.

Paydalanylǵan ádebiyatlar

1. Bozorova M.K. Kichik yoshdagı maktab o'quvchilarida do'stlik, o'rtoqlik hissini tarbiyalashda xalq an'analaridan foydalanish. Toshkent -1994
2. Ibragimov X.I., Abdullayeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. -T.: «Fan va tex-nologiyalar» nashriyoti, 2008.
3. Yuzlikayeva E.. Axmedova M., Qurbonova G.. Sh.Tashmetova. Umumiy pe-dagogika. -T.: TDPU, 2012.
- 4.. Jumaeva X. Folklor va tarbiya. Toshkent. O'qituvchi-1980

# **ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИННОВАЦИЯ, ФАН ВА ТАЪЛИМ 10-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фарруҳ Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзисв

Эълон қилиш муддати: 30.11.2023

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000